

Ilmiy tadqiqot natijalari

✘ Bugun “Yer resurslarini boshqarish” fakultetida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkillashtirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, iqtidorli talaba-yoshlar bilan ishlash, ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv va ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish yuzasidan 2018 yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ushbu hisobot yig'ilishida fakultet jamoasi 2018 yilda davlat byudjeti, Respublika granti va xo'jalik shartnomasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishganligi va shu bilan birgan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini amaliyotga va o'quv jarayoniga tatbiq etish, ilmiy, ilmiy-pedagogik va kadrlar tayyorlash, iqtidorli talabalar bilan ishlash yo'nalishlarida tegishli natijalarga erishilganligi to'g'risida yig'ilganlarga ma'lumotlar berildi. ✘

Shuningdek, 2018 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida belgilangan vazifalarga muvofiq malakali kadrlar tayyorlash, barkamol yoshlarni tarbiyalash, o'quv jarayonini ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy tadqiqot ishlari bilan uzviy bog'lab olib borish, talabalarning ijodiy dunyoqarashini takomillashtirish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, qishloq va suv xo'jaligini isloh qilish va rivojlantirish talablariga mos keladigan mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Shu bilan birga yig'ilishda fakultetda faoliyat olib borayotgan 4 ta kafedra, xususan “Yerdan foydalanish” kafedrası, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrası, Davlat kadastrlari kafedrası, Oliy matematika kafedralari bo'yicha qilingan ishlar to'g'risida qisqacha ma'lumot berildi. Yig'ilish so'ngida fakultet bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha hisobot tasdiqlandi va 2019 yilga rejalashtirilgan ishlar muhokama qilindi.

YERB fakultetining Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari H.Eshova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov